

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH O‘ZBEKISTON  
MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

---

**NAJMUTDINOVA GULNOZAXON BAXTIYOROVNA**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING REFLEKSIY  
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Najmutdinova Gulnozaxon Baxtiyorovna**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish  
metodikasini takomillashtirish.....3

**Нажмутдинова Гульнозахон Бахтияровна**

Совершенствование методики развития рефлексивных навыков у будущих  
преподавателей английского языка.....21

**Najmutdinova Gulnozaxon Bakhtiyorovna**

Improving the Methodology for Developing Reflective Skills in Pre-Service English  
Language Teachers.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH O‘ZBEKISTON  
MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

---

**NAJMUTDINOVA GULNOZAXON BAXTIYOROVNA**

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING REFLEKSIV  
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.Phd/Ped5077 raqam bilan ro‘yhatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) tilda ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Atadjanova Shaxnoz Abbasovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

**Pardayeva Diyora Tohirovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat\_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( -raqami bilan ro‘yhatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel: (+99871) 27682-32, fax: (+99871) 276-76-51, email: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_\_\_” kuni tarqatildi.

(2025-yil “\_\_\_\_\_” da \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A.Abdullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**N.M.Ahmedova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,  
pedagogika  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori(Phd), dotsent

**Z.N.Mamarajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy seminar raisi,  
pedagogika fanlari doktori(DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sub'ektlarining chet tillarni o'rganishidagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklarini tahlil qilish va baholash, keyingi til o'rganish bosqichlarini rejalashtirish, bu jarayonning kuchli va zaif tomonlarini bilish, eng samarali o'rganish strategiyalarini tanlash, til o'zlashtirishning funkcionalligini belgilash mexnizmlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan didaktik modellar tatbiq etilmoqda. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini refleksivlik asosida tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va metodlarni qo'llashga bo'lgan intilishni izohlaydi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"<sup>1</sup> dolzarb ahamiyat kasb etib, ta'lim mazmunini mazkur munosabatlarga asoslanib shakllantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ingliz tili o'qituvchisining kasbiy refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarida refleksiv-metodik yondashuvdan foydalanish, shu yo'nalishda didaktik ta'minotni ishlab chiqish, buyurtmachilar talablarini bitiruvchilarning kelgusidagi kasbiy sifatlarini shakllantirishda intensiv texnologiyalardan foydalanish asosida integratsiyalash, kasbga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini takomillashtirish bo'yicha ilmiy- tadqiqot ishlari olib borilmoqda. AQSH, Germaniya, Fransiya va Yaponiya kabi yetakchi davlatlarda refleksiya yordamida to'plangan bilimlarni tahlilga tortish va qayta ko'rib chiqish jarayonini pedagogik mahorat negizida baholashning kognitiv faoliyatga hamroh bo'lishi mushtarakligida shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish va takomillashtirishning zaruriy tarkibiy qismlari, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari takomilini ta'minlash, har qanday faoliyat turini refleksiv ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirishga mo'ljallangan masalalar o'rganilmoqda.

Respublikamizda ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'qituvchilik kasbini nufuzi va obro'sini oshirish ta'lim jarayoniga ilg'or xorij tajribalarini joriy etish, ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integratsiyalash, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirishning me'yoriy asoslari ishlab chiqildi. O'quv jarayonida refleksiv kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biri faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi sub'ektiv munosabatlarni faollashtirish, "uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish"<sup>2</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bu esa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksiv faoliyatida metodik tayyorgarlik darajasini, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga

---

<sup>1</sup> IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2022 y./ <https://lex.uz/docs/-5841063>

yo‘naltirilgan texnologiyalarni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ 2909–son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining –2019-yil 29-apreldagi PF-5712 –son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora - tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Chet tillarni o‘qitishda interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari ustida N.M.Ahmedova, M.X.Gulyamova, J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, A.A.Musayeva, D.T.Pardayeva, K.Dj.Riskulova, D.X.Xolmurodova, I.B.Utayevalar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida pedagogik refleksiyaning rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari M.Ye.Beloborodova, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, A.V.Karpov, A.N.Leontyev, A.K.Markova, L.I.Panova, M.V.Romanova, S.L.Rubinshteyn, S.Yu.Stepanov, I.N.Semenov, V.I.Slobodchikov, O.A.Fedorenko, A.S.Sharovlarning, tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan.

Pedagogik refleksiyaning rivojlantirishning metodik ta‘minotini yaratish masalalari xorijiy olimlar O. M.Baker, J.Cattel, S.M.Clark, J.Dewey, F.F.Fuller, K.Gray, D.A.Schön, R.Rudd, A.Schon, Ye.Wenger, M.Wallacelarning ishlarida tadqiq qilingan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining “Pedagogik yo‘nalishlar va mutaxassisliklar bo‘yicha ilg‘or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron- ta‘lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya

texnologiyalarini joriy etish” nomli ustuvor yo‘nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish modelini takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonini metodikasini takomillashtirish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorligi aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni bo‘lib, ISFT (International school of Finance, Technology and Science) instituti, Samarqand davlat chet tillar instituti, Namangan davlat chet tillari institutlarining 60230100 – “Filologiya va tillarni o‘qitish (Ingliz tili)” ta’lim yo‘nalishining 1-3 - bosqich talabalardan 565 nafari ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmetini** bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning shakl, metod va vositalarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.**

nazariy metodlar: ilmiy adabiyotlar tanqidiy tahlili; xorijiy tajribani umumlashtirish, tasviriy-analitik, qiyosiy-chog‘ishtirma, sintez va kategorizatsiya;

empirik metodlar: eksperimental o‘qitish, kuzatish, suhbat, diagnostika, ekspert baholar metodi, test o‘tkazish;

tadqiqot davomida olingan tajriba-sinov ma’lumotlarini qayta ishlash statistik metodlari, miqdoriy va sifat tahlili va ularning talqini.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari o‘zining ijodiy faoliyatini dinamik oshirib borishga yo‘naltirilgan tanqidiy fikrlay olish ko‘nikmasini oshirish hamda kasbiy faoliyat pragmatikligini ta’minlashning motivatsion, xissiy- emotsional, kommunikativ darajalarini qiyosiy prognozlash asosida aniqlashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ta’lim jarayonini modellashtirishda subyektning o‘ziga nisbatan faol tanqidiy pozitsiyani tanlash qobiliyati mavjudligini prognozlash hamda kognitiv-propedevtik, tizimli-loyihalashtiruvchi, integrativ-umumlashtiruvchi bosqichlarni o‘zini-o‘zi faollashtirishning tashkiliy tuzilmasiga identiv integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish metodikasi faoliyatli yondashuvga ko‘ra subyekt-subyekt munosabatlarini diagnostik loyihalash, talabalarning bilim olishga yo‘naltiradigan muammoli, kognitiv, dialogli, baholash va refleksiv tahlilni o‘quv jarayonini tashkil etishning har xil shakllarini,

vositalarni va o'zgaruvchan didaktik ta'minot tizimlarini amalga tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish saaradorligi mustaqil ishlash ulushini oshirishga yo'naltirilgan ko'rgazmali tushuntirish, tinglash, xotirada saqlash, xatosiz talaffuz qilish kabi individual va differensial ta'lim texnologiyalarining integrativ xossalariga funksional bog'liqligini ta'minlash asosida aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

60230100-Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Applied Linguistics" darsligi nashr etilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqqan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning baholash mezonlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoga pedagogik va psixologik, metodik yondashuv asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish hamda pedagogik ta'lim sohasidagi respublikamiz, chet ellik olimlar, shuningdek, amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi, o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari, jihatlari, strategiyalari, malakali mahalliy va xorijlik o'qituvchilar tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir birini mustahkamlovchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishi natijalarining matematik statistik usullari bilan asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning metodik ta'minoti, texnologiyalari, metodlari, shakllari, vositalari hamda ishlab chiqilgan modeldan oliy ta'lim muassasalari dastur, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish, xorijiy til o'quv sillabusi mazmuni, baholash kontentini ishlab chiqishda tadqiqotning natijalaridan foydalanilgani, baholash reytingi, tadqiqotning natijalari asosida shakllanganligi, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun dars ishlanmalari ishlab chiqilganligi bilan izohlandi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishga oid olingan ilmiy natijalar asosida:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning

didaktik imkoniyatlari o'zining ijodiy faoliyatini dinamik oshirib borishga yo'naltirilgan tanqidiy fikrlay olish ko'nikmasini oshirish hamda kasbiy faoliyat pragmatikligini ta'minlashning motivatsion, xissiy- emotsional, kommunikativ darajalarini qiyosiy prognozlash asosida aniqlashtirishga oid takliflar "Applied Linguistics" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2- maydagi 05-2804/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar to'plami ishlab chiqilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ta'lim jarayonini modellashtirishda sub'ektning o'ziga nisbatan faol tanqidiy pozitsiyani tanlash qobiliyati mavjudligini prognozlash hamda kognitiv-propedevtik, tizimli-loyihalashtiruvchi, integrativ-umumlashtiruvchi bosqichlarni o'zini-o'zi faollashtirishning tashkiliy tuzilmasiga identiv integratsiyalash asosida takomillashtirishga oid taklif va xulosalari asosida "Applied Linguistics" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2- maydagi 05-2804/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining mustaqil ta'limni tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyati oshgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish metodikasi faoliyatli yondashuvga ko'ra subekt-subekt munosabatlarini diagnostik loyihalash, talabalarining bilim olishga yo'naltiradigan muammoli, kognitiv, dialogli, baholash va refleksiv tahlilni o'quv jarayonini tashkil etishning har xil shakllarini, vositalarni va o'zgaruvchan didaktik ta'minot tizimlarini amalga tatbiq etish asosida takomillashtirishga oid taklif va xulosalar "Applied Linguistics" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2-maydagi 05-2804/04-son dalolatnomasi). Natijada, bo'lajak o'qituvchilar pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish saaradorligi mustaqil ishlash ulushini oshirishga yo'naltirilgan ko'rgazmali tushuntirish, tinglash, xotirada saqlash, xatosiz talaffuz qilish kabi individual va differensial ta'lim texnologiyalarining integrativ xossalari funksional bog'liqligini ta'minlash asosida aniqlashtirishga oid taklif va xulosalar "Applied Linguistics" darsligi mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2025-yil 2-maydagi 05-2804/04-son dalolatnomasi) Natijada, bu taklif bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish kundaligini yaratilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta respublika hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta, shundan 4 tasi respublika, 1 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 140 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmlarni rivojlantirishning pedagogik muammolari, psixologik-pedagogik xususiyatlari va bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirishda pedagogik refleksiyaning o'ri kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Bugungi globallashuv davrida ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki shaxsning mustaqil fikrlash, muammoni hal etish va o'z-o'zini tahlil qilish kabi kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, refleksiv kompetensiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta'lim islohotlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi hamda “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va Davlat dasturlarida keltirilgan vazifalar zahirida talabalarning fikrlash mustaqilligini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi.

Tanqidiy tafakkur toifasini ko'rib chiqqan holda, D. M. Shakirova o'z tadqiqotida o'n olti tushunchadan iborat tizimni keltiradi, ularning orasida refleksiya alohida ahamiyatga ega, chunki inson o'z harakatlarini anglab yetishi tafakkur mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar ishlarida refleksiya faoliyatning tarkibiy komponenti sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan. A.N.Leontyevga ko'ra, refleksiya tashqi (amaliy) faoliyat bilan ichki (aqliy) faoliyat o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlashni bildiradi. D.Shon esa “faoliyat jarayonidagi refleksiya” va “faoliyatdan keyingi refleksiya” haqida so'z yuritarkan, vaziyatni tahlil qilish, o'z harakatlarini va ularning oqibatlarini anglash, boshqa insonlarning harakatlarini tahlil qilish, shuningdek faoliyat yo'naltirilgan obyektning javob reaksiyasini tushunish kabi reflektiv ko'nikmalarning shakllanganligini alohida ta'kidlaydi ularning barchasi esa cheklangan vaqt va nostandart sharoitlarda amalga oshiriladi.

Faoliyat turi va refleksiv jarayonlarning yo'nalishiga, shuningdek, chet tilini o'rganish kontekstida qaralganda, tadqiqotchilar quyidagi refleksiya turlarini ajratib ko'rsatadilar:

shaxsiy refleksiya – chet tilini o'rganish motivlarini o'z-o'zini baholash va o'quv

topshiriqlarini bajarishning shaxsiy ahamiyatini anglash;

intellektual refleksiya – chet tilidagi faoliyatni amalga oshirish uchun o‘z intellektual resurslari va axborotni qayta ishlashga oid kognitiv qobiliyatlarini anglash;

tilshunoslik (yoki tilga oid) refleksiya – chet tilidagi mavjud til ko‘nikmalari va amaliy bilim darajasini tahlil qilish;

emotsional refleksiya – muammoli chet tili vaziyatlarini ichki emotsional qabul qilish holatini qayd etish;

kooperativ refleksiya – ichki holatlarni nazorat qilish va ularni tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan baholash;

kommunikativ refleksiya – muloqot jarayonidagi sheriklar harakatlariga mos ravishda o‘z harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida boshqalar tomonidan qanday qabul qilinayotganini anglash.

A.V.Karpov, vaqt omiliga ko‘ra refleksiyaning quyidagi shakllari farqlaydi:

situativ (joriy vaziyatda amalga oshiriladigan),

retrospektiv (o‘tgan faoliyatni tahlil qilish),

perspektiv (kelajakdagi harakatlarni rejalashtirish).

Pedagogik lug‘atlardagi "refleksiya" atamasi ta'riflarida bir nechta qirralar mavjud bo‘lib, ularning asosiy urg‘usi o‘zini kuzatish, o‘z holati va harakatlarini (va boshqalar harakatlarini ham) faol tahlil qilish, voqealarni keng tizimli kontekstdagi anglash jarayonlarini tashkil etishga qaratilgan.

Shaxs amalga oshirayotgan faoliyatni ichki rejada, ya'ni o‘z-o‘zini tahlil qilish va anglab yetish orqali aks ettirib, uni takomillashtirishi mumkin.

Refleksiya maqsadni belgilashni talab etadi, maqsad esa fikrlash jarayonini boshqaradi. Bunday fikrlash va pedagogik refleksiyadagi o‘ziga xoslik shundaki, yengib o‘tish kerak bo‘lgan to‘siq, yechimini kutayotgan muammo, turli xil qiyinchilik, shubhaning mavjudligi - refleksiv fikrlashning yangi maqsadi, yo‘nalishini belgilab beradi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchining shakllanishi va rivojlanishi mazkur maqsadga erishishga yo‘naltirilgan faoliyat mobaynida yuz beradi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchining ixtiyoriy predmetli faoliyati – o‘quv, bilish, ta’limiy, kommunikativ, ma’naviy faoliyat subyektivi motivini tashkil etish va uning maqsadini ta’minlashdan iboratdir.

Tadqiqotchilar refleksiyani so‘ndiruvchi va an‘naviylikni uyg‘otuvchi ikkita asosiy omillarini ajratadi:

1. Refleksiya, fikrlash, tushunish, izlanish faoliyati. vositalariga emas, balki “bilimlarga” o‘rgatish faoliyati.

2. Bilmaslik va shubhani qabul qilmaslik.

Mualliflik tarifimizga ko‘ra refleksiya ko‘nikmalar — shaxs o‘zining fikrlash jarayonlarini va faoliyatini tahlil qilish, baholash va ularga oid qarorlar qabul qilish jarayonlarini anglatadi. Bu ko‘nikmalar, tilni o‘rganishda talabning o‘zining til o‘rganish jarayonini va natijalarini tahlil qilish, shu bilan birga, o‘z-o‘zini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan faoliyatni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Refleksiya turlari maqsadlar va yondashuvlar asosida aniqlanadi. Refleksiv ko‘nikmalar – bu ta’limning insonparvarlik paradigmasini amalga oshirishning asosiy

xususiyati sanaladi. Ta'limning insonparvarlik paradigmasi o'z mohiyatiga ko'ra refleksiv sanaladi, chunki uning asosida jamiyatning ijtimoiy tajribasi yotadi. Refleksiv ko'nikmalar pedagogning kasbiy faoliyati tizimiga kirib, refleksiyaning tashqi va ichki turi ajratiladi.

Refleksiya majburiy ta'sir vositasi sifatida amalga oshirilmaydi, o'z tabiatiga ko'ra mustaqil hisoblanib, erkin faoliyat xususiyatini egallanishiga ko'maklashadi. Refleksiyada o'zini tushunish va o'zida sodir bo'layotganlarni anglash ehtiyoji mavjud.

V.A.Slastyonin refleksiv ko'nikmalarni kasbiy pedagogik faoliyatda quyidagi xususiyatlarini ajratadi:

- 1) psixologik tayyorgarlik – turli faoliyat ko'rinishlariga tayyorgarlik;
- 2) ilmiy-nazariy tayyorgarlik (refleksiv faoliyat uchun zarur bo'lgan ilmiy- nazariy, psixologik-pedagogik, maxsus bilimlarning mavjudligi);
- 3) amaliy faoliyatga tayyorgarlik.

Mazkur xususiyatlarni amaliyotda joriy etish uchun biz bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining faoliyatini uni refleksiv komponentini, shakllanishida psixologik-pedagogik sharoitlarni ko'rib chiqishimiz kerak.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari faoliyatida o'tkazilishi zarur bo'lgan keng qamrovli vazifalar talabalardan turli bilim, ko'nikma, malakalarni egallashni talab etadi. Kasbiy rivojlanishda zarur bo'ladigan amaliy bilim, ko'nikma, malakalar ham ajratilishi mumkin. Ularga faoliyatni rejalashtirish va tashkil etish, tashabbus va ijodning namoyon bo'lishi, jamoada muloqot qilishni bilish, o'z-o'zini boshqarishda ishtirok etish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar kabilarni kiritadi.

Talabalarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning maqsadi va vazifalari, talabalarining ehtiyojlari, ko'nikmalarning tuzilishi, refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning o'ziga xosligi va ularning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida shakllanganlik darajasini inobatga olgan holda tanlandi. Ushbu jarayon oldida turgan maqsad va vazifalarning tahlili, refleksiv ko'nikmalarni keyingi rivojlantirish uchun zarur bo'lgan bilimlar tizimini ajratishga imkon berdi.

Refleksiya bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining butun hayoti davomida rivojlanib boradi, uni faoliyat turi yoki fan tarmog'i bo'yicha chegaralab bo'lmaydi. S.Yu.Stepanov har qanday refleksiv ko'nikmalarning rivojlanishiga ma'lum bir vaqt davomida to'plangan bilim va malakalar zamin yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda, refleksiv ko'nikmalarning rivojlanishida shaxsiy sifatlar bilan bir qatorda, hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar asosiy rol o'ynaydi.

A.A.Musayeva fikricha, refleksiya subyektning o'z faoliyatini hosil qilishni anglash fikriy-faoliyatli yoki hissiy jarayoni ham hisoblash mumkin. U insonga olinadigan natijalarni ifodalashga, kelgusi ishlarni avvaldan belgilashga, o'z faoliyatini korreksiyalashga yordam beradi. Refleksiya insonning o'z faoliyatini anglash va bilish qobiliyati namoyon bo'ladigan keng doiradagi hodisalarni ajratishga yordam beradi.


Zamonaviy ta'lim tizimida talabalar faolligi, mustaqil fikrlashi, o'z o'quv faoliyatini baholay olish va uni tahlil qilish qobiliyatlari muhim kompetensiyalar sirasiga kiradi. Xususan, ingliz tilini o'rganish jarayonida refleksiv ko'nikmalar (ya'ni, o'z fikrlash va o'rganish faoliyatini tahlil qila olish, natijalarni baholash va o'zini

rivojlantirishga yo‘naltirilgan ichki mulohaza yuritish) til o‘rganish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biroq ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish va metodikasini takomillashtirishda bir qator pedagogik, psixologik va tashkiliy muammolar mavjud: metodologik yondashuvning yetarlicha ishlab chiqilmagani, o‘qituvchilarning tayyorgarligi va malaka darajasining yetishmasligi, talabalarning psixologik tayyorgarligi va motivatsiyasi to‘liq shakllanmaganligi, baholash tizimining nomuvofiqligi, raqamli texnologiyalar va muhitdan samarali foydalanishdagi muammolar.

Quyida yuqorida berilgan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarda reflektiv ko‘nikmani rivojlantirishga doir qiyinchiliklarga tavsiyalar tasnifini beramiz: reflektiv o‘qitishning nazariy asoslariga tayangan didaktik konsepsiya ishlab chiqilishi lozim; o‘qituvchilar uchun reflektiv pedagogik texnologiyalar bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur; refleksiyaga asoslangan faoliyat turlarini talabalarning shaxsiy rivojiga yo‘naltirib, ularning ichki motivatsiyasini rag‘batlantirish lozim; reflektiv faoliyatni baholash uchun aniq, o‘lchab bo‘ladigan mezonlar ishlab chiqilishi va tatbiq etilishi kerak; reflektiv ta‘lim jarayonida interaktiv raqamli platformalar integratsiyasi metodik jihatdan to‘liq yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Refleksiya qilishni odat qilsangiz, nafaqat yaxshi ingliz tili o‘qituvchisiga, balki o‘z ustida ishlaydigan, o‘zgarishga ochiq va muvaffaqiyat sari intiladigan shaxsga aylanishingiz mumkin. Boshlanishi qiyin bo‘lishi mumkin, lekin har bir kichik qadam katta o‘zgarishlar sari olib boradi.

Reflektiv ko‘nikmalarni didaktik imkoniyatlari pedagogik-reflektiv qobiliyatga ega bo‘lish, reflektiv fikrlay olish, mustaqil fikrlay olishni aniqlashtirish orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining motivatsion, xissiy-emotsional, kommunikativ rivojlanish darajalarini oshirish bosqichma-bosqich aniqlashtirildi(1-rasm).



**1-rasm. Reflektiv ko‘nikmalarni didaktik imkoniyatlari**

Bizning tadqiqotimizda shaxsga yo'naltirilgan, tizimli, kontekstli yondashuvlar refleksiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash va refleksiv pedagogika konsepsiyasini o'rganish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Mazkur pedagogik konsepsiya bo'lajak ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashning amaliy faoliyati uchun yangi imkoniyatlarni yaratadi.

Ingliz tilini o'qitishda talabalarda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi mumkin. Bu bosqichlar talabalarning yoshi, til bilish darajasi va o'quv maqsadlariga qarab farq qilishi mumkin, ammo umumiy holda quyidagi bosqichlarni ajratish mumkin:

o'z-o'zini anglash (self-awareness) bosqichi. Bu bosqichda talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini, o'rganish uslublari va afzalliklarini anglashga harakat qiladilar.

rejalashtirish (planning) bosqichi. Talabalar o'zlarining o'quv maqsadlarini aniqlab, ularga erishish uchun reja tuzadilar. Bu bosqichda o'qituvchi talabalarga maqsadlarni SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) mezonlariga muvofiq shakllantirishga yordam berishi mumkin. Misollar:

haftada kamida 100 ta yangi so'z o'rganish.

har kuni 30 daqiqa davomida ingliz tilida kitob o'qish.

amalga oshirish va monitoring (implementation and monitoring) bosqichi. Talabalar tuzgan rejasiga amal qiladilar va o'zlarining rivojlanishini kuzatib boradilar.

O'qituvchi bu jarayonda talabalarga kerakli resurslar va qo'llab-quvvatlashni taqdim etishi mumkin.

baholash va tahlil (evaluation and analysis) bosqichi. Talabalar o'zlarining o'quv jarayonini baholaydilar va erishilgan natijalarni tahlil qiladilar.

adaptatsiya (adaptation) bosqichi. Bu bosqichda talabalar oldingi bosqichlarda olgan bilimlari va tajribalariga asoslanib o'zlarining o'rganish strategiyalarini moslashtiradilar. Ular o'zlarining kuchli tomonlarini rivojlantirishda davom etadilar va zaif tomonlari ustida ishlash uchun yangi usullarni izlaydilar.

D. A. Schön Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, talabalardan doimiy ishlashni talab qiladi. O'qituvchi bu jarayonda talabalarga yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi rol o'ynashi kerak. Bu bosqichlarni qo'llash orqali talabalar o'zlarining o'quv jarayonini boshqarishni o'rganadilar va mustaqil ravishda til o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining yoshi va boshqa fazilatlariga javob beruvchi shakllarning ko'pligi.

Agar talaba mustaqil ravishda refleksiv jarayonni amalga oshira olmasa, unga bu vaziyatda tashkilotchi – o'qituvchi kerak bo'ladi, uning maqsadi talabani refleksiv faoliyatini amalga oshirish, o'z imkoniyatlari va kamchiliklarini topishda yordam berishdir. Buning asosida esa ta'limiy (kasbiy) vazifalari belgilanadi. Ta'limiy refleksiyaning quyidagi shakllari mavjud – guruh shakllari (jamoaviy o'quv mashg'ulotlar) va individual (biror-bir holatni og'zaki muhokama qilish, yozma so'rovnomani to'ldirish).

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish mazmuni, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini faoliyat refleksiyasi asosida modellashtirish va bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining refleksiv ko‘nikmalarini takomillashtirishning metodik tizimi haqida so‘z yuritilgan.

Ingliz tilini o‘qitishda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish mazmuni o‘zining dolzarbligi va o‘zgacha ahamiyatiga ega. Bu masalani o‘rganish, ta’lim jarayonida talabning nafaqat tilni o‘rganishdagi, balki o‘z-o‘zini anglash va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantirishga qaratilgan. Refleksiv ko‘nikmalarning rivojlanishi, talabaga nafaqat tilning grammatik, leksik va fonetik jihatlarini o‘zlashtirishda yordam beradi, balki ularni tilni ijtimoiy va madaniy kontekstda qo‘llashda ham imkoniyat yaratadi. Bu jarayon, shuningdek, talabning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga, tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

Taklif etilayotgan metodika an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, ta’lim jarayonini refleksiv faoliyatga yo‘naltirilgan modellashtirish tamoyiliga asoslanadi. Bu yerda ta’lim subyekti – talabalar o‘zlarining o‘quv faoliyatida faol, tanqidiy pozitsiyani egallagan ishtirokchiga aylanadi. Ular bilimni tayyor holatda emas, balki o‘z-o‘zini anglash, tahlil qilish va mustaqil qaror chiqarish orqali egallashadi. Tadqiqot metodikasi shunday qurilganki, u talabning o‘quv jarayonida bilim bilan birga o‘z faoliyatini tanqidiy baholovchi va qayta tashkil etuvchi subyekt sifatida rivojlanishini nazarda tutadi. Bu refleksiv pozitsiya ya’ni o‘z xatti-harakatlarini, qarorlarini, va natijalarini tanqidiy tahlil qilish qobiliyati – oldindan prognoz qilinadigan va metodik tarzda rivojlantiriladigan maqsadli ko‘nikma sifatida qaraladi.

Tadqiqotda quyidagi bosqichli rivojlanish modeli asosida taklif etildi:

kognitiv-propedevtik bosqich – talabalarda refleksiya uchun zarur nazariy bilimlar, tushunchalar va asosiy ko‘nikmalar shakllantiriladi. Bu bosqichda refleksiv tahlilga intellektual tayyorgarlik beriladi;

tizimli-loyihalashtiruvchi bosqich – talabalar o‘quv jarayonidagi faoliyatlarini tahlil qiladi, strategiyalar ishlab chiqadi va refleksiv fikrlash asosida rejalashtirishni o‘zlashtiradi;

integrativ-umumlashtiruvchi bosqich – ilgari egallangan refleksiv tajriba umumlashtiriladi, chuqurlashtiriladi va mustaqil faoliyatga integratsiyalanadi. Bu bosqichda talaba o‘zini faol subyekt sifatida anglaydi va refleksiyani shaxsiy rivojlanish vositasiga aylantiradi.

Metodik tizimning yana bir innovatsion jihatini – bu o‘zini-o‘zi faollashtirishga yo‘naltirilgan tashkiliy modelni ishlab chiqishdir. Bu model asosida talabalar: o‘z shaxsiy identifikatsiyasini (ya’ni kimligini, ehtiyojlarini, intilishlarini) anglab yetadi, refleksiv tahlil orqali o‘z faoliyatini boshqarishga o‘rganadi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga motivatsiyalanadi. Bu struktura “identiv integratsiyalash” tamoyiliga asoslanadi –

ya'ni refleksiya shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi va natijada individual rivojlanish yo'nalishi shakllanadi. Taklif etilayotgan metodika O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim yangilik bo'lib, u bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining nafaqat til kompetensiyasini, balki shaxsiy refleksiv va tanqidiy fikrlash salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu metodika talabalarning aktiv ishtirokchiga aylanishiga, o'zini anglashga, va ijtimoiy-psixologik jihatdan barqaror kasbiy pozitsiyani shakllantirishga zamin yaratadi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishni modellashtirish jarayonida didaktik komponentlarini (motivatsion-qadriyatli, kognitiv, amaliy operatsion, ijodiy-refleksiv identiv xususiyatlarga ko'ra integratsiyalash asosida takomillashtirilgan.

Ingliz tilini o'qitishda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning komponentlari motivatsion, kognitiv, ijodiy tashkil etadi(1-jadval).

### 1-jadval

#### Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishning komponentlari

Motivatsion-qadriyatli komponent	Motivatsion komponentning didaktik ahamiyati
Motivatsiya, talabaning o'qish jarayonida faolligini, davomiyligini va muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy elementdir.	Ichki motivatsiyani rivojlantirish, maqsadga yo'naltirilgan o'qish, o'z-o'zini baholash va muvaffaqiyatni kutish.
Kognitiv-faoliyatli komponent	Kognitiv komponentning didaktik ahamiyati
Talabalar o'z bilimlari va ko'nikmalarini tahlil qilish, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ular bilan ishlashni o'rganish orqali, yanada samarali o'rganish uslublarini ishlab chiqishga yordam beradi.	Ma'lumotni tahlil qilish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, kognitiv refleksiya, o'z-o'zini tuzatish.
Amaliy operatsion komponent	Amaliy operatsion komponentning didaktik ahamiyati
Refleksiv faoliyatni real muhitda qo'llash muammolarni aniqlash, o'zini baholash va fikr-mulohaza yozish. Shustova bu komponentni refleksiyadan kelib chiqib, amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish qobiliyati sifatida ta'riflaydi .	Talabalarning refleksiyaga asoslangan amaliy faoliyatni real ta'lim jarayonida qo'llay olish, muammolarni aniqlash, o'z faoliyatini baholash va tuzatishga qodir bo'lish ko'nikmalarini rivojlantiradi. U mustaqil fikrlash, tezkor tahlil qilish va pedagogik vaziyatlarga moslashish imkonini beradi.
Ijodiy-refleksiv komponent	Ijodiy komponentning didaktik ahamiyati
Talabaning tilni o'rganishdagi ijodkorligini va yangicha fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu komponent orqali talabalar tilni o'rganishda an'anaviy yondashuvlardan tashqariga chiqishga va yangi metodlarni ishlab chiqishga qodir bo'ladilar.	Talabalar, tilni o'rganishda yangi va ijodiy usullarni ishlab chiqishga rag'batlantiriladi, yangicha fikrlash va tashabbuskorlik, tilni real vaziyatlarda qo'llash.

Ingliz tilini o'qitishda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda motivatsion, kognitiv, amaliy faoliyat va ijodiy komponentlarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyatga ega. Motivatsiya talabalarni o'qish jarayoniga faollik bilan jalb qiladi, kognitiv komponent bilimlarni chuqurroq o'rganish va tahlil qilishni rivojlantiradi, ijodiy komponent esa tilni o'rganishda yangi yondashuvlarni qo'llash va ijodkorlikni oshirishga yordam beradi. Bu uchala komponent o'quvchilarga tilni o'rganishdagi o'z o'rinlarini mustahkamlash va samarali o'qish jarayonini amalga oshirishga yordam beradi. Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada muvaffaqiyatli va samarali qilishga xizmat qiladi.

Demak, refleksiyani rivojlantirishning asosi – refleksiv ko'nikmalar bo'lib, ularsiz yangi bilim, faoliyatning yangi usullarini shakllantirish mumkin emas. Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish talabalik davrida eng samarali tarzda bajariladi bu esa, shaxsiy va professional fazilatlar asosini, aynan oliy ta'lim bosqichida amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

